

O'Z JANGOVAR RUXNI KO'TARISH XAR BIR JANGCHINI ASOSIY G'OYASIDIR

Atamurodov Azamat Nizamkulovich

*O'R HX va MU serjantlar tayyorlash oliy maktabi tibbiy tayyorgarlik sikli
boshlig'i, podpolkovnik, Samarqand shahri*

Annotasiya: Harbiy xizmatchilarni jangovar vazifa (qurolli mo'joro)larini bajarishda jangovar ruxini oshirish kimga bog'liq yoki to'sqinlik qilayotgan masalalarni yengib o'tish va jangovar ruxning harbiy xizmatchilar tomonidan ko'tarishga qaratilgan ma'lumotlarga asoslanib tayyorlangan.

Kalit so'zlar: qo'rquv, o'zini-o'zi qo'rqitish, vatanga sadoqat bilan xizmat qilish.

...“Xozirgi taxlikali zamonda butundunyo bu ofatni butun insoniyatning zaif jihatlarini yaqqol ko'rsatib kelmoqda”- deb ta'kidlab o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo'shinlarida axloqiy-ruhiy ta'minot ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida qo'shinlarning jangovar shayligi va jangovar qobiliyatini yuksaltirish, mamlakat tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashga, halol harbiy xizmatchilarni tarbiyalashga qaratilgan O'zbekiston Qurolli Kuchlari Axloqiy-ruhiy ta'minot konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qo'shma qaror imzolandi.

Tegishli vazirlik va idora rahbarlarining soha bo'yicha o'rinbosarlari, harbiy okrug qo'shinlari va unga tenglashtirilgan birlashmalar qo'mondonlari, mudofaa ishlari boshqarmalari va bo'limlari boshliqlari, harbiy qism komandirlari va muassasa boshliqlari mazkur qarorda belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi bo'yicha shaxsan javobgar hisoblanadi.

Ushbu Konsepsiya O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, «O'zbekiston Respublikasining Mudofaa Doktrinasini to'g'risida»gi qonuni hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasining harbiy tashkiloti faoliyatining amaldagi qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazasi asosida Qurolli Kuchlarning harbiy harakatlarini axloqiy-ruhiy ta'minlash sohasidagi qarashlar, asosiy tushunchalar, maqsad va vazifalar, qonuniyat va tamoyillar, yo'nalishlar, shakl hamda usullar tizimini o'zida aks ettiradi.

Konsepsiyada Markaziy Osiyo mamlakatlarida inqirozli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ichki siyosiy barqarorlikka tahdidlar, axborot kommunikasiya makonida O'zbekiston Respublikasining suverenitetiga, mustaqilligiga, hududiy yaxlitligiga qarshi qaratilgan hamda aholining tinch hayotiga tahdid soluvchi ehtimoliy mafkuraviy va psixologik



harakatlarga qarshi kurashish yo'llari keltirib o'tilgan.

Axloqiy-ruhiy ta'minot bu — Qurolli Kuchlar boshqaruv organlari, qo'mondonlar, shtablar, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari, boshqa boshqaruv organlari va mansabdor shaxslar tomonidan shaxsiy tarkibning har qanday vaziyatlarda qo'yilgan vazifalarni so'zsiz bajarilishini ta'minlaydiganyuqori axloqiy-ruhiy holati va boshqa sifatlarini shakllantirish, saqlab turish va tiklash bo'yicha maqsadlari, vazifalari, joyi, vaqti, ketma-ketligi, jalb qilinadigan kuch va vositalari bo'yicha muvofiqlashtirilgan harakatlar majmuidir.

Xulosa Xozirdagi taxlikali zamonda harbiy xizmatchilar o'rtasida jangovar ruxga ega bo'lgan jangchigina va o'z Vataniga sadoqat bilan xizmat qilishi mumkin. Harbiy xizmatchilarimiz tomonidan jangovar (amaliy) mashg'ulot mobaynida faolligi, mustaqilligi o'zlashtirish darajasining oshishida jangovar rux asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANGAN MANBALAR

1. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining 2022 yildagi 371-sonli buyrug'i, Toshkent 2022 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi tarbiyaviy va mafkuraviy organlari tomonidan ishlab chiqilgan o'quv qo'llanma, Toshkent 2022 y.
3. "MUDOFAA.UZ". Yangiliklari internet saytidan.
4. Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi //O'zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. Inson huquqlari bo'yicha universal shartnomalar / Mas'ul muharrir A.X.Saidov. - T.: "Adolat", 2002. - 51-bet.

